



ANDIJON VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

2021- YIL YANVAR-OKTABR


Sanoat statistikasi bo'limi
Tel.: 74-228-30-42

Andijon viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2021-yil yanvar-oktabr)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 27 072,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 98,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (97,3 %)ni tashkil etdi.



B–Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C-Ishlab chiqaradigan sanoat D-Elekt, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash, E-Suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 4,5 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 15,9 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 146,1 % ga va elekt, gaz, bugʻ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 9,6 % o'sishi kuzatildi.


**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 142,5 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi yil boshidan, % da




Ishlab chiqaradigan sanoat



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 26 349,3 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,3 % ini tashkil etdi


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi yil boshidan, % da




Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 118 853 dona yengil avtomobil ishlab chiqarilib (2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 36,7 % ga kamaygan), 16,3 ming tonna neft (62,2 %) yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi. va 294,4 tonna murakkab organik erituvchilar va suyultirgichlar (70,8 %), 114 785,2 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (10,9 %), 10 430,0 ming. litr 80 % dan etil spirti (8,6 %), 375,0 tonna uzum vinosi (24,5 %) kamayish kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da





Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-oktabr	2020- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Yengil avtomobillar, dona	118 853,0	187 731	-68 878
Paxtadan yigirilgan ip, t.	65 823,3	44 219,9	21 603,4
Aroq, ming litr.	520,0	653,6	-133,6
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	114 785,2	128 896,5	-14 111,3
Kard yoki taroqda taralmagan paxta tolasi, tonna.	24 500,1	39 354,4	-14 854,3
O'simlik yog'i (tozalanmagan), t.	21 531,0	13 275,0	8 256,0

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda yengil avtomobillar 36,7 % ga kamaydi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2021-yilning yanvar-oktabr oylarida 52 454 dona "Cobalt" (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 78,9%), 21 578 dona "Nexia T-250" (37,4 %), 37 557 dona "Lacetti-Gentra" (89,9 %), 7 264 dona "Spark" (33,4 %) avtomobillari ishlab chiqarildi.

Andijon viloyatida yengil avtomobillar ishlab chiqarish sanoati 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, dona




**Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalari
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-oktabr	2020- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Etil spirti, <i>ming l.</i>	10 430,0	11 414,0	-984
Uzum vinosi, <i>ming l.</i>	375,0	497,0	-122,0
Urug'lik paxta chigiti , <i>tonna.</i>	15 505,6	24 377,6	-8 872,0
Paxta linti, <i>tonna.</i>	2 667,9	3 103,3	-435,4
Kalish , <i>ming dona.</i>	5 151	6 341	-1 190

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash


2021- yilning yanvar-oktabr oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 487,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (1,8 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 9,6 % ga o'sish kuzatildi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
yil boshidan, % da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida
yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-oktabr	2020- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	474,5	248,3	226,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	92,4	112,8	-20,4
Elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm.	302,5	303,7	1,2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 94,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini) tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
yil boshidan, % da



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-oktabr	2020- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	159,1	94,7	64,4
Oqava suvlarni shlami, mlrd.so'm	12,0	7,1	4,9
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar- mlrd.so'm	50,1	47,1	3,0

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 18 932,9 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 18,3 % ga kamaygan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 69,9 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,1 % (2020- yil yanvar-oktabr oylarida 0,1 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumanida to'g'ri kelib, 65,1 % ni, shuningdek, Andijon shahariga 7,9 % ni, Xo'jaobod tumani 1,8 % ni, Shaxrixon tumanida 2,8 % ni hamda Izboskan tumani 1,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat (18,3 %) ga kamaygan. Shunga qaramasdan yuqori darajada o'sish ko'rsatkichi Izboskan (106,4 %), Paxtaobod (141,4 %), Baliqchi (121,5 %), Bo'ston (112,6 %), Shaxrixon (113,2 %), tumanlarida hamda Andijon shahrida (100,4 %) qayd etildi.

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**
2021- yilning yanvar-oktabr oylarida


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 4 115,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 17,8 % ni tashkil etdi.


**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2021-yilning yanvar-oktabr oylarida

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	18932,9	100,0	81,7
Andijon viloyati			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	1486,4	7,9	100,4
Andijon shahar			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	336,8	1,8	161,0
Xonobod shahar			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	553,7	2,9	120,6
Andijon			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	12325,6	65,1	70,8
Asaka			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	265,5	1,4	121,5
Baliqchi			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	245,5	1,3	99,7
Buloqbo'shi			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	190,0	1,0	112,6
Bo'ston			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	387,2	2,0	103,7
Jalaquduq			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	351,5	1,9	106,4
Izboskan			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	148,1	0,8	117,4
Ulug'nor			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	277,2	1,5	141,0
Marhamat			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	425,3	2,2	133,6
Oltinko'l			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	292,6	1,5	141,4
Paxtaobod			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	785,7	4,2	121,3
Xo'jaobod			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	538,8	2,8	113,2
Shahrixon			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	323,0	1,7	106,8
Qo'rg'ontepa			

**Andijon viloyat hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarishi hajmlari
2021-yilning yanvar-oktabr oylarida**

	Mlrd. so'm		Ulushi % da	O'sishi % da			
	27072,9		100,0	98,6			
	Andijon viloyati						
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	4699,4	17,4	93,8		1476,5	5,5	105,4
	Andijon shahar		Xonobod shahar				
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	739,9	2,7	102,2		12782,1	47,2	71,3
	Andijon		Asaka				
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	1032,6	3,8	143,3		274,2	1,0	102,2
	Baliqchi		Buloqboshi				
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	269,4	1,0	102,0		750,3	2,8	116,6
	Bo'ston		Jalaquduq				
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	746,7	2,8	121,5		327,5	1,2	124,6
	Izboskan		Ulug'nor				
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	375,0	1,4	107,8		577,2	2,1	96,4
	Marhamat		Oltinkol				
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	459,1	1,7	121,3		845,8	3,1	112,1
	Paxtaobod		Xo'jaobod				
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	808,6	3,0	123,4		908,6	3,4	111,5
	Shahrixon		Qo'rg'ontepa				

**Andijon viloyati hududlari kesimida ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**





Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Qo'rg'ontepa (2020- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 111,5 %), Jalaquduq (116,6 %), Izboskan (121,5 %), Paxtaobod (121,3 %) va Baliqchi (143,3 %), Buloqboshi (102,2 %) Ulug'nor (124,6 %), tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

Andijon viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Asaka tumanida (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 47,2 % ni) hamda Andijon shahri (17,4 %), Xonobod shahri (5,5 %), Baliqchi (3,8 %), Qo'rg'ontepa (3,4 %) va Xo'jaobod (3,1 %) shahar va tumanlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Buloqboshi (1,0 %), Bo'ston (1,0 %) hamda Ulug'nor (1,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka (38 110,0 ming so'm), Xonobod shahar (34 020,7 ming so'm) va Andijon shahrida (10 369,4 ming so'm) tuman va shaharlarda o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (8 426,8 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 5 911,5 ming so'm bo'lgan holda, Asaka tumanida – 36 882,6 ming so'mni, Xo'jaobod tumanida – 6 954,7 ming so'mni, Andijon shahrida – 3 289,1 ming so'mni, Xonobod shahrida 7 775,1 ming so'mni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish
2021-yilning yanvar-oktabr oylarida, ming so'm**

	Sanoat mahsulotlari		Iste'mol mahsulotlari		
	8 426,8		5 911,5		
	Andijon viloyati				
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	10 369,4	3 289,1		34 020,7	7 775,1
	Andijon shahar			Xonobod shahar	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2 744,4	2 061,5		38 110,0	36 882,6
	Andijon			Asaka	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	5 044,3	1 301,5		1 884,2	1 693,1
	Baliqchi			Bulqoboshi	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	3 655,6	2 588,1		3 965,9	2 052,2
	Bo'ston			Jalaquduq	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	3 074,1	1 452,1		5 368,6	2 439,5
	Izboskan			Ulug'nor	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2 126,0	1 576,5		3 168,0	2 344,7
	Marhamat			Oltinko'l	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2 329,2	1 489,9		7 518,3	6 954,7
	Paxtaobod			Xo'jaobod	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2 641,7	1 766,5		4 133,7	1 474,1
	Shahrixon			Qo'rg'ontepa	



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda

kichik biznesning ulushi

2021-yilning yanvar-oktabr oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 7 442,9 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 27,5 % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buloqboishi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Shahrixon (80,4 %), Jalaquduq (71,3 %), Izboskan (31,6 %), hamda Andijon (79,3 %) tumanlarida kuzatildi.



Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Asaka tumani (3,7 %), Xonobod shahar (38,9 %) va Andijon shaharida (32,5 %) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi
tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda viloyatda 9 686 dona sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 3 332 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 34,7 % i) Andijon shahriga, 1 010 tasi (10,5 %) Asaka tumaniga, 782 tasi (8,1 %) Andijon tumaniga, 719 tasi (7,5 %) Shahrixon tumaniga, 520 tasi (5,4 %) Xo'jaobod tumaniga, 441 tasi (4,6 %) Oltinko'l tumanlariga to'g'ri kelmoqda.




2021-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatda 1 377 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 245 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar hajmidagi ulushi 17,8 %) Andijon shahrida, 121 tasi (8,8 %) Asaka tumanida, 128 tasi (9,3 %) Shahrixon tumanida, 89 tasi (6,5 %) Xo'jaobod tumanida, 130 tasi (9,4 %) Andijon tumanida tashkil etildi.


Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari 2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligida Asaka (1 013 ta), Andijon (797 ta), Shahrixon (717 ta), Xo'jaobod (524 ta), Oltinko'l (443 ta), Qo'rg'ontepa (392 ta) va Izboskan tumanlarida (330 ta) hamda Andijon shaharida (3342 ta) qayd etildi

Viloyat miqyosida eng ko'p sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar
2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra



Viloyat miqyosida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar
2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra



2021-yilning 1-noyabr holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligiga esa Jalaquduq (350 ta), Baliqchi (395 ta), Buloqboshi (283 ta), Marhamat (301 ta), Paxtaobod (279 ta), Bo'ston (219 ta) va Ulug'nor tumanlarida (119 ta) hamda Xonobod shahrida (182 ta) faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar qayd etildi.

**Sanoat statistikasi
bo'limi**

Tel.: (74) 228-30-42